

QADAMJOLARI ZIYORATI

qadimiy Xurosonda

e'tibor qaratilgan. Masalan, Samarqanda Boysunqir mirzo buyrug'i bilan Fir davsiy "Shohnoma"sining tayanch matni yaratilgan. Uning so'zboshisini Boysunqir mirzoning o'zi yozib bergen. Eron olimlari ana shu qo'lyozmaga yozilgan so'zboshi va masnaviyiga ishlangan mini atyuralar albomini tayyorlashibdi (مَهْانَهَاشْ يَعْرِفُنَسْ إِبْرِيْقِنْ). Majlisda ana shu albomni ko'rsatishdi; temuriylar davri kitobat san'atining go'zal namunasi. Uzoqdan ko'rib, ko'zim chaqnab, esim og'ayozdi; qani endi menda ham shu kitobdan bo'lsa, deya xayol qildim.

Akademiya ishlari va kelgusi rejalar haqida ham so'z bordi. Aytishlaricha, akademiya Alisher Navoiy merosi bo'yicha ilmiy konferensiya o'tkazishni rejalashtirmoqda. Kengashda O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida fors tilini o'qitish va o'rgatishga ham e'tibor qaratiladi.

Sa'diy jamg'armasi shoir ijodi va fors tilini o'rgatishga qaratilgan. Jamg'arma mada o'qituvchilar malakasini oshirish kurslari ham tuzilgan. Darslar uzoq masofada turib o'qitiladi. Jamg'arma fors tili va adabiyotini o'qitishga grantlar ajratishga tayyor. Fors tili va adabiyotini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan disertatsiyalarini otaliqqa ham oladi. Sa'diy jamg'armasidan metodik qo'llanmalar yaratayotgan o'qituvchilarga ham grant ajratiladi.

Majlisda biz tarafdan Olimjon Davlatov va Boqijon To'xliyev so'zladi.

Yig'indan so'ng rasmga tushdik; kitoblar ayrboshlandi. Qay so'z bilan aytay buni, har birimizga yuqorida ko'rsatigan "Shohnomayi Boysunqiriy" albomidan bittadan tarqatishdi; mana buni kitob desa bo'ladi.

Uchrashevda keyin Eron Milliy kultubxonasiga yana keldik. Endi bizni kultubxonadagi qo'lyozma kitoblar va o'quv zallari bilan tanishtirdilar. Bizni qalin temir eshilki xonaga olib kirishdi; bu xonaga har kimsaning kiritilavermasligi tayin. Lekin bizga ko'rsatishdi. Ertalabki suhbatda men Navoiy asarlari qo'lyozmalari ko'rish istagida ekanimni aytgandim: buni qarangki, nodir qo'lyozmalar orasida Navoiy devonlari qo'lyozmalari dan uchtaşı turibdi.

Nodir qo'lyozmalar: Qur'oni karim, ulug' shoirlarning asarlari, shular qatori Navoiy kitoblari. Yana allaqancha eski kitoblar. Tokchaga taxlog'liq qo'lyozmalar ham anchagini.

Navoiyning kitoblaridan biri "Badoye ul-bidoya"ning XV yuzyilga oid qo'lyozmasi; o'ta chirolyi kitob. "Badoye ul-bidoya" Navoiyning o'zi tuzgan birinchchi devonidir. Odatda, devonga nisbatan "tuzgan" deyiladi; bunday deyilishiga sabab, devonda shoirning yillar davomida yozib yurgan she'rlari tartib bilan bir to'plamga yig'iladi. Masnaviyaga nisbatan "falon yili yozib tugatgan" deyiladi; chunki masnaviy oyolar, ko'pincha, yillar davomida yoziladi. She'rga, g'azalga nisbatan "yo'zgan" desa bo'lavera di. "Badoye ul-bidoya"ni "Navoiyning o'zi tuzgan birinchchi devon" deyishimizga sabab, uning o'zidan burun tuzilgan devonlari ham bor: ular shoirning mux-

islari tarafidan tuzilgan "Ilk devon" va "Oqqo'yunlilar devoni"dir. "Badoye ul-bidoya"ga Navoiy debocha (ya'ni kirish so'zi) ham yozgan. Keyinchalik tuzilgan "Xazoyin ul-ma'oniy"ning ham debochasi bor. Debochada devonning tuzilish maqsadi, shoirning ko'ngil so'zlarini, uning o'z davri adabiy muhitiga hurmati bayon qilinadi. Muhimi, "Badoye ul-bidoya"ning biz ko'rgan qo'lyozmasida ham debocha keltirilibdi.

Kutubxona xodimlariga, ayniqsa, fond mudirasiga hurmatim oshib ketdi. Kitoblarni ko'rib chiqqach, mudiraga alohida minnatdorchiligidan bildirdim.

Qo'lyozmalar fondidan keyin kutubxonaning o'quv zallarini aylandik. Hasamatli saroylar barcha texnik qurollar bilan jihozlangan; tokchalarda taxlog'liq kitoblarni ko'rib, havasingiz keladi. Ayniqsa, o'quv zalini yuqori qavatdan tomosha qilish huzur bag'ishlaydi kishiga.

Tushdan so'ng (soat 14:10 da) Madaniy meros va buyuk siymolar xotirasini mangulashtirish uyushmasida olimlar bilan uchrashev o'tkazildi.

Uyushma ikki qavatlari tarixiy binoda joylashgan. Binoga kiraverishda bir yodqa Kamoliddin Behzodga, ikkinchi yodqa Kamol Xo'jandiya haykal ishlangan. Uyushma tuzilganiga 147 yil to'libdi, binosi ham o'sha davrda qurilgan ekan.

Majlis katta zalda o'tkazildi. Devor va shiftlari billur shishadan ishlangan; juda chiroli.

Yonidagi ayvonda dasturxon yozib, bizni mehmon qilishdi.

Kechga yaqin, saot 16 dan ozgina o'tgandi, mashinaga o'tirib, Sabzavor shahriga yo'l oldik.

KO'HNA XUROSON TUPROQLARINI KEZIB

Sabzavor Eronning Xuroson viloyatidagi ko'hna kentlardan biri. Tehrondan 700 chaqirim yo'l. Tunda yurganimiz uchun tevarakni yaxshi ilg'ab bo'lindi. Taqir yerlar; yig'ochlar onda-sonda ko'riniq qoladi. Shunday esa-da, yo'llari keng va tekis; ikki tavaqali. Menga Eronning kentlarni bog'lovchi qorayo'llari yodqi: birlanchi, tekis; ikkilanchi, bari ikki tavaqali bo'lib, o'rtada 50 metrcha bo'sh joy qoldirilgan; bir-biriga xalaqit bermaydi, avtomobillar erkin harakatlanadi.

Kentga tunda allamahal kirib bordik. Bizni universitet mehmonxonasiga joylashtirishdi. Kentga tunda allamahal kirib bordik. Bizni universitet mehmonxonasiga joylashtirishdi.

2024-yil, fevral oyining o'n to'rtinchchi kuni.

Sabzavordagi ilk uchrashev Hakim Sabzavoriy universitetida bo'lib o'tdi.

Hakim Sabzavoriy diniy bilimlarda taniqli olim o'tgan.

Hakim Sabzavoriy universiteti Xuroson viloyatining ikkinchi yirik universitetidir. Yer maydoni juda katta. Shu tuzlikda beshta universitet uchun 200 hektar yer ajratilgan ekan, biz borgan universitet

shulardan biri; yopiq binolari ham ko'p; 9000 talabasi bor. Bakalavr, magistratura, doktorantura yo'nalishlari bor. 400 ga yaqin chet elliklar o'qiydi.

Bir binodan boshqasiga bog'dan o'tib boriladi. Biz borgan chog'lar hali qish chiqib ulgurmagan. Shunday esada, havo iliq. Tevarakda ochilgan gullar, bizda uchramaydi; qishdan qanday chiqdi ekan? Yig'ochlar orasida sada ko'p, yana biz bilmaydigan bir qancha turlari. Bog'dan o'tib borayotgan kelishgan yigit-qizlarni ko'rib havasing keladi.

Alisher Navoiyning otasi Sabzavor hokimi bo'lgan. Bu yerda Navoiy bilan bog'liq joylar ham bor.

Sabzavorda chig'atoy urug'larining avlodlari ham bor ekan. Ularning tili turkiy bo'lsa-da, o'g'uzchadan farqli. Bu tili o'rganish kerak ekan.

Majlisdan so'ng universitet ustozlari va talabalari o'rtasida adabiy yig'in ham bo'lib o'tdi. Yig'inda fors she'riyatidan g'azallar o'qildi; fors klassiklarining g'azallarini tinglash juda maroqli. Forslar g'azallarni chiroli o'qydi.

Menga eng yoqqani, yig'inda o'quvchi yigit-qizlar eski Xuroson xalq kuylaridan ikkisini chalib berishdi; yoshlarning mahoratiga hayron qoldim. Qo'shig'ini yosh bir o'qituvchi yigit aytdi. Birida Abdurahmon Jomiyning Navoiyga atab yozgan she'ri qo'shiqqa solinibdi, ikkinchisi o'sha zamondan qolgan xalq qo'shig'i ekan. Tinglochining ko'ngliga yoqadigan kuylar; o'zbek xalq kuylarini esga soladi.

Uchrashevda so'ng Sabzavor shahrining tarixiy obidalari bilan tanishdik. Biz ko'rgan tarixiy binolar Sabzavorning uzun bir ko'chasida joylashgan bo'lib, ko'cha shahar tashqarisiga olib chiqar ekan.

Tarixiy obidalarning biri XV yuzyilda qurilib, keyinchalik qayta ta'mirlangan katta masjid. U shahar o'rtasida. Masjid devorlarida eski yozuvli toshlarning parchalari saqlangan; binoning asl g'ishtlari bilan ta'mirdan keyingi g'ishtlari ajralib turibdi.

Ikkinci ko'rganimiz, bir ustunli masjid. Uni ko'chada turib tomosha qildik.

Uchinchisi, XIX yuzyilda eski Sabzavor qopqasining shundoqqina tashqarisida qurilgan qojar urug'iga mansub kishining maqbarasi. Maqbaraning ichini aylanib chiqdik.

To'rtinchisi, XIII yuzyilda qurilgan eski masjid. U shahardan chetroqda bo'lib, yomg'ir chaqirish uchun u yerda namoz o'qilgan ekan. Eski masjidni ko'chadan turib tomosha qildik.

U yerdan chiqib, shahar tashqarisida gi chekka bir qishloqqa bordik. U yerlik bir rassom yigit otasining uyida ustaxonada oshib, ish yuritar ekan. Chizgan rasmlari xalqaro ko'rgazmalarda yutib chiqibdi. Uning rasmlarida yashirin ma'nolar mujassam. Muhimi, u Alisher Navoiy g'azallaridagi satrlarni rasm qilib chizibdi: ularni har kimsa o'zicha tushunadi. Uning ana shu mahoratini ko'rsatgani bizni ustaxonaga olib borishibdi. Rasm lardan hayratga tushdik. Bu rasmlar savdoda yaxshi baholanadi. Qizig'i shundaki, qaytayotganimizda har birimizga bittadan rasm tortiq qildi. Ular Navoiy g'azallarining satrlari bo'lgani uchun,

Toshkentga qaytayotganimizda rasmlarni Navoiy xalqaro jamoat fondiga topshirdik.

Shundan so'ng universitet mehmonxonasiga qaytdik.

2024-yil, fevral oyining o'n beshinchchi kuni.

Erta tongda turib universitet muze-yiga yo'l oldik. To'g'risi, bu tashrif kechagi rejaga kiritilgan edi, ishlarnimiz ko'payib, ulgurmay qoldik. Bugun erta yo'iga chiqqanimizning sababi, ana shu chala qolgan ishni tugallash edi.

Bizga universitet rektorining o'zi bosh bo'ldi. Muzey kattagina. Bizni fors matni tarixi ekspositsiyasiga olib kiritshdi. Materiallarining ko'pi original, yirik muzeylardan qolishmaydi. Qadimgi qilich va buyumlardagi yozuvlardan tortib, kitob bosqichigacha bo'lgan oraliq aks etgan. Tosh, metall va sopol parchalaridagi yozuvlar ham bor. Mashhur xattotlarning ishlaridan ham qo'yilgan. Muzey menda katta taassurot qoldirdi. So'ngra universitet yemak uyida ovqatlanib, Nishopur shahriga yo'l oldik.

Sabzavordan Nishopurgacha 100 chiqrim yo'l. Qorayo'l ikki tavaqali, ni-hoyatda tekis. Kuzatishimcha, Xuroson viloyatidagi shaharlar ichida Sabzavor issiq joyda joylashgan ekan, tevaragida ham taqir yerlar ko'p.

Kunduzi yurganimiz uchun Nishopur yo'lini yaxshi kuzatdim: yo'l toqqa yaqinlashgan sari obodlasha boradi. Tevarakda ora-chora ekin dalalari, yig'ochlar ham ko'zga tashlana boshlaydi. Orada taqir yerlar ham bor.

Yana bir jihat, ikki tavaqali qorayo'lining tagidan sel o'tishi uchun 300, sel kuchli keladigan joylarda esa 200 metrler oralig'ida ko'priklar tashlab ketilgan. Nishopurga bora-borg'uncha shunday. Buni yo'l qurilishidagi katta yutuq desa bo'ladi. Yo'lning tekisligi va xavfsizligini ta'minlash uchun hech narsa ayalmagan. Buni ko'rib, tabiat hodisalariga to'sqinlik qilib bo'imasligi, ularga yo'l beribgina, falokatdan qutulish mumkinligini tushunar ekansan kishi.

Nishopur shundoqqina tog' yonbag'ridagi shahar; qorli tog'lar ko'zga bir chaqirimdek yaqin; havosi toza va tiniq. Nishopur yig'ochlar ko'p, eski-eski archalarga boy shahar ekan. Aytgancha, Eronning archalari yirik ignali, shoxlari ham quyuq; yoyilib o'sadi. Yana bu o'lkalarda chinor, oqterak ham ko'p ekiladi. Bular Sharqning kent va o'lkalari yarashadigan yig'ochlar.

Mashina ichkari kirmay, shahar yoqalab universitetga yo'l soldi. Nishopurdagi birinchi uchrashev Nishopur universitetida bo'lib o'tdi.

Nishopur universiteti shahar tashqarisida qurilgan ekan: ochiq joy, juda katta yer; fakultetlari alohida-alohida; tevaragi bog'; qorli tog'larning yoqimli yeli esib turibdi.

Bizni rektor boshliq rahbarlar kutib oldi. Uchrashev universitet rahbarlari va olimlar o'rtasida bo'lib o'tdi (uchrashev boshlanganda soat 10:40 edi).

Majlis Qur'oni karim tilovati bilan boshlandi. So'ngra rais so'zni Olimjon Davlatovga berdi. U chirolyi bir kirish so'zidan keyin bizni birma-bir jamoaga tanishtirdi.

(Davomi 12-betda.)